

## **KO'RFUZ MINTAQASIDA ERON ENERGETIKA DIPLOMATIYASI**

**Olimjonov Salohiddin Sohibjon o'g'li**

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy

jarayonlar yo'nalishi magistranti

Salohiddinolimjonov05@gmail.com

+998999194005

### **ANNOTATSIYA**

*Fors ko'rfuzi mintaqasida Eronning energetik diplomatiyasi strategik ahamiyatga ega. Mamlakat uglevodorodlar va energiya resurslarining katta zaxiralariga ega bo'lib, uni mintaqaviy va global miqyosda muhim o'yinchiga aylantiradi. Eronning energetika siyosati, shu jumladan neft va gaz eksporti va energetika infratuzilmasini rivojlantirish uning mintaqadagi iqtisodiy va siyosiy mavqegini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, Eron mintaqaning boshqa mamlakatlari va jahon energiya bozorlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda milliy manfaatlariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida o'zining energetika diplomatiyasini qayta ko'rib chiqmoqda. Ushbu maqolada Eronning energetika diplomatiyasining mintaqaviy va xalqaro siyosatdagi o'rni, shuningdek, uning energiya resurslarini boshqarish va eksport qilish strategiyasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot Eronning energetika diplomatiyasining mintaqaviy va global energetika bozorlariga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada Eronning energetika diplomatiyasining Fors ko'rfuzi qo'shni davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlashdagi o'rni, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri chuqur o'rganilgan. Tadqiqot xalqaro hujjatlar, shu jumladan, Eronning energetika siyosati bilan bog'liq rasmiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va tahliliy maqolalarida asoslangan. Bundan tashqari, tadqiqotda Eronning energetika diplomatiyasi bo'yicha mutaxassislarining fikrlari va baholari o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Eron, Fors ko'rfuzi energetika diplomatiyasi, energiya siyosati, energetika bozori, energetik hamkorlik, uglevodorodlar, xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, xavfsizlik, neft, gaz, xalqaro sanksiyalar.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Энергетическая дипломатия Ирана имеет стратегическое значение в регионе Персидского залива. Страна обладает большими запасами углеводородов и энергоресурсов, что делает ее важным игроком как в региональном, так и в глобальном масштабе. Энергетическая политика Ирана, включая экспорт нефти и газа и развитие энергетической инфраструктуры, способствует укреплению его экономических и политических позиций в регионе.*

*В то же время Иран пересматривает свою энергетическую дипломатию, чтобы обеспечить соответствие национальным интересам с учетом изменений в других странах региона и на мировых энергетических рынках. В этой статье рассматривается роль энергетической дипломатии Ирана в региональной и международной политике, а также его стратегия управления и экспорта энергоресурсов. Исследование направлено на анализ влияния энергетической дипломатии Ирана на региональные и глобальные энергетические рынки. В статье подробно рассматривается роль энергетической дипломатии Ирана в укреплении связей с соседними странами Персидского залива, а также ее влияние на региональную безопасность. Исследование основано на международных документах, включая официальные документы, касающиеся энергетической политики Ирана, отчеты международных организаций и аналитические статьи. Кроме того, в исследовании изучались мнения и оценки экспертов по энергетической дипломатии Ирана*

**Ключевые слова:** *Иран, энергетическая дипломатия Персидского залива, энергетическая политика, энергетический рынок, энергетическое сотрудничество, углеводороды, международные отношения, внешняя политика, безопасность, нефть, газ, международные санкции.*

## **KIRISH**

XXI asrda energetika diplomatiyasi xalqaro munosabatlarning ajralmas qismiga aylandi. Davlatlar siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun energiya resurslaridan faol foydalanmoqdalar va energetika tashqi siyosatning asosiy vositalaridan biriga aylandi Kelgusi o‘n yilliklarda energiya resurslari, xususan neft va gaz, global iqtisodiyotning rivojlanishi va xalqaro munosabatlar dinamikasida muhim strategik omil bo‘lib qolishi kutilmoqda. Ushbu resurslar nafaqat energetika sohasidagi barqarorlikni ta‘minlash, balki mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda ham asosiy rol o‘ynaydi. Mintaqaviy va global energetika xavfsizligini ta‘minlash, yangi energiya bozorlarining shakllanishi va ekologik o‘zgarishlarga qarshi kurashish masalalari ham kelgusi yillarda dolzarb bo‘ladi. Eronning energetika diplomatiyasi, ayniqsa neft va gaz sohasidagi siyosati, ushbu global o‘zgarishlarga mos ravishda yangi strategik yo‘nalishlarni ishlab chiqishni talab etadi. Mintaqadagi ziddiyatlar, iqtisodiy sanksiyalar va texnologik yangiliklar energiya diplomatiyasining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan bo‘ladi. Hozirgi vaqtda energiya resurslari, ayniqsa uglevodorodlar, davlatlar o‘rtasida iqtisodiy va harbiy bosim ko‘rsatish vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Fors ko'rfazi esa global energiya xavfsizligi nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega bo'lgan mintaqa sifatida, jahon iqtisodiyoti va siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mintaqada joylashgan Eron, ulkan neft va gaz zaxiralari bilan nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda ham diqqat markaziga aylangan. Eronning energetika siyosati tarixan faqat neft va gaz eksportiga qaratilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda mamlakatning siyosat va iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligini tan olishga qaror qilganligi, uni global sahnada mustahkam pozitsiyaga olib kelishga intilishiga sabab bo'lmoqda. Eron, o'zining energetik resurslarini iqtisodiy va siyosiy maqsadlar uchun foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqmoqda, bu esa unga global hamkorlar bilan teng huquqli aloqalar o'rnatish imkoniyatini yaratadi. Eronning energetik diplomatiyasi mintaqaviy energiya balansini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatning ulkan uglevodorod zaxiralari, uni nafaqat o'z xavfsizligini ta'minlash, balki qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni mustahkamlashda ham muhim vositaga aylantiradi. Eron, shuningdek, energiya resurslarini eksport qilish orqali global bozorga ta'sir ko'rsatishga intiladi, bu esa uning xalqaro siyosatdagi mavqeini yanada mustahkamlaydi. Xalqaro energiya bozorlaridagi o'zgarishlar va Eronga qarshi qo'llanilayotgan sanksiyalar sharoitida, mamlakat o'z diplomatiyasini faollashtirib, energiya sektori orqali iqtisodiy izolyatsiyani engishga va geosiyosiy pozitsiyalarini kuchaytirishga harakat qilmoqda. Eronning energetika diplomatiyasi nafaqat neft va gaz eksporti, balki energetika infratuzilmasiga sarmoya kiritish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli energiya ittifoqlari o'rnatishni o'z ichiga oladi. Kelajakda Eronning energetika diplomatiyasi, shuningdek, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, global energiya bozorlaridagi yangi tendensiyalarni inobatga olgan holda, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish uchun yanada diversifikatsiya qilinishi mumkin. Bu jarayon, Eronning energetik resurslarini boshqarish strategiyasini yanada murakkablashtiradi va uning mintaqadagi siyosiy ta'sirini oshiradi.

## **METODOLOGIYA**

Eronning Fors ko'rfazidagi energetika diplomatiyasini tahlil qilishda xalqaro munosabatlar va geosiyosatning tahliliy usullari qo'llanilgan. Tadqiqot quyidagi asosiy manbalarga tayangan: Eron va mintaqa mamlakatlarining energetika siyosatiga oid rasmiy bayonotlari va hisobotlari. Ushbu bayonotlar va hisobotlar Eronning energetika diplomatiyasining shakllanishi va amalga oshirilishining asosiy vositalarini o'rganishga imkon beradi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining mazmunini tahlil qilish orqali mintaqadagi energetika munosabatlarining dinamikasi

va ularning xalqaro siyosatga ta'siri aniqlangan. Xalqaro energetika va diplomatiya bo'yicha yetakchi tahlilchilar va mutaxassislarining fikrlarini o'rganish, shuningdek, Eron va boshqa mamlakatlarning energetika siyosatiga oid ilmiy tadqiqotlar va analitik maqolalarni o'rganish, ushbu masalalarga chuqurroq yondashishga imkon yaratdi. Ma'lumotlarning asosiy manbalariga Xalqaro energetika agentligi (XEA) hisobotlari, ixtisoslashgan jurnallardagi maqolalar, shuningdek, Eron va xalqaro ommaviy axborot vositalarining tahliliy ma'lumotlari kiradi. Tadqiqot davomida, Eronning energetika siyosatining xalqaro miqyosdagi o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishi, shu jumladan, xalqaro sanksiyalar, energetika bozorlaridagi tendensiyalar va mintaqaviy ziddiyatlar kontekstida qanday yangilanishlar ro'y berayotgani aniqlangan. Bundan tashqari, Eronning energetika diplomatiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, uning mintaqadagi geosiyosiy va iqtisodiy pozitsiyalarini kuchaytirishga yordam berishi kutilmoqda. Bunga erishish uchun Eron o'zining energetika resurslarini boshqarishda innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishga, shuningdek, yangi energiya kooperatsiyalarini yaratishga intiladi. Tadqiqot natijalari, Eronning energetika diplomatiyasining kelgusidagi rivojlanishi va mintaqaviy hamkorlikdagi o'rni haqida muhim fikrlar berishi mumkin.

### **ASOSIY QISM**

Eron neft zaxiralari bo'yicha dunyoda to'rtinchi, tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha esa ikkinchi, neft qazib olish bo'yicha 5-o'rinda turadi. Eron jahon neft zaxiralarining taxminan 10 foizini va tabiiy gaz zaxiralarining 15 foizini egallaydi.[1] Eronning energetika resurslari-jahon energetika bozorlarida hal qiluvchi rol o'ynash imkoniyatini yaratadi, bu esa uning mintaqadagi va global miqyosdagi siyosiy ta'sirini sezilarli darajada oshiradi. Iqtisodiy sanksiyalarga qaramay, Eron o'zining energetika infratuzilmasini rivojlantirishni davom ettirmoqda va yangi uglevodorod bozorlarini izlashda faoliyatini kengaytirmoqda. Eronning energetika diplomatiyasining asosiy yo'nalishi xorijiy sarmoyalarni jalb qilish orqali yangi konlarni ishga tushirish va neft-gaz sanoatini modernizatsiya qilishdir. Eronning Fors ko'rfazidagi energetika strategiyasi mintaqaviy xavfsizlik va geosiyosiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu strategiya Eronning neft va gaz resurslarini qanday samarali boshqarishi, shu orqali mintaqadagi davlatlar bilan energetika sohasidagi hamkorlikni qanday rivojlantirishi va o'zining siyosiy-maqсадlariga qanday erishishini belgilaydi. Eron o'zining energetika resurslaridan nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki siyosiy va diplomatik ta'sirini kuchaytirish uchun ham foydalanmoqda. Kelgusi yillarda esa Eron energetika diplomatiyasini yanada diversifikatsiya qilishni va xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishni maqsad qilmoqda. Mintaqaviy va global energetika bozorlaridagi yangi tendensiyalar, ayniqsa qayta tiklanuvchi

energiya manbalariga o'tish, Eronning energetika siyosatini qayta ko'rib chiqish va yangilanishlarni joriy etishni talab qiladi. Shu bilan birga, Eronning energetika diplomatiyasi, yangi texnologiyalarni jalb qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan strategik tashabbuslar bilan mustahkamlanishi kerak. Bu jarayon Eronning energetika sektorida ilg'or texnologiyalarga investitsiya kiritish va yangi energiya ittifoqlari o'rnatish orqali xalqaro munosabatlaridagi nufuzini yanada oshirishi mumkin. [2].

Fors ko'rfazi energetika resurslari uchun raqobat maydoni hisoblanadi. Eron energetika bozorlariga o'z ta'sir o'tkazish uchun Saudiya Arabistoni va BAA kabi davlatlar bilan raqobatlashishga majbur. Eronning energetika diplomatiyasidagi asosiy vositalaridan biri strategik ittifoqlar tuzishga qaratilgan. Masalan, Eron va Qatar dunyodagi eng yirik "Janubiy Pars" gaz konini o'zlashtirishda hamkorlik qilmoqda, bu esa energetika sohasidagi muvaffaqiyatli diplomatiyaning bir namunasidir.[3] Bundan tashqari, Eron Turkmaniston, Iroq va Pokiston bilan neft va gaz quvurlari loyihalarini amalga oshirishga harakat qiladi. Ba'zi ekspertlar Eronning energetika diplomatiyasini mintaqaviy xavfsizlikka tahdid deb hisoblashadi. Ularning fikriga ko'ra, Eron o'zining energetika resurslarini mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy ta'sirini oshirish uchun vosita sifatida ishlatadi. Masalan, AQShning sobiq davlat kotibi Hillari Klinton Eronning "energetika quroli"ni mintaqadagi davlatlarga bosim o'tkazish uchun ishlatishini aytib, "Eron o'zining neft va gaz zaxiralarini mintaqadagi davlatlarga bosim o'tkazish va o'zining siyosiy maqsadlariga erishish uchun ishlatadi", deb ta'kidlagan. Boshqa ekspertlar Eronning energetika diplomatiyasini mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga yordam berishi mumkin deb hisoblashadi. Ularning fikriga ko'ra, Eron o'zining energetika resurslarini mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish uchun ishlatishi mumkin. Masalan, Britaniya Xalqaro Siyosat Instituti (Chatham House) ning energetika bo'yicha mutaxassisi Robert Maller Eronning "energetika diplomatiyasini mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun ishlatishi mumkin" deb ta'kidlagan.[5] Eronning energetika resurslarini qanday ishlatishini aniqlash mintaqaviy xavfsizlikka ta'sir qiladi. Shuning uchun, Eron o'zining energetika diplomatiyasini mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va barqarorlikni mustahkamlashga yo'naltirish kerak, shundagina Fo'rs ko'rfazida barqarorlik ta'minlanishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Eronning yadro dasturi tufayli unga qarshi joriy etilgan xalqaro sanksiyalar neft va gaz eksportini sezilarli darajada cheklab qo'ydi. Xalqaro sanksiyalar tufayli xorijiy kompaniyalar Eron energetika sektoriga investitsiya qilishdan qo'rqishadi. Bu Eronning energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi loyihalarni



amalga oshirish qobiliyatini qisqarishi vujudga keltirdi. Eron sanksiyalarga qaramay, uglevodorodlarini sotib olishni davom ettirayotgan Xitoy va Hindiston kabi muqobil bozorlarni izlashga majbur qildi.[6] Sanksiyalar, shuningdek, Eronni Rossiya va Xitoy bilan energetika sohasidagi munosabatlarini rivojlantirishga undadi.[7] Xalqaro sanksiyalar Eronning energetika siyosatining moslashuvchanligini namoyon qilmoqda. Sanksiyalarning uzoq muddatli ta'siri hali to'liq aniqlanmagan bo'lsa-da, bu masalani kelajakda doimiy ravishda kuzatish zarur. Eronning energetika strategiyasi, ayniqsa, AQSh va uning ittifoqchilari tomonidan joriy etilgan sanksiyalar tufayli sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi. Bu sanksiyalar, asosan, Eronning neft va gaz eksportini cheklab, uning iqtisodiy barqarorligini zaiflashtiradi. Sanksiyalarning bekor qilinishi yoki yumshatilishi Eronning jahon energetika bozoridagi mavqeini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. Eronning energetika strategiyasining istiqbollaridan biri, Yevropa bozoriga gaz yetkazib berishni kengaytirish, shuningdek, suyultirilgan tabiiy gaz (SNG) eksportini oshirish uchun zarur bo'lgan energetika infratuzilmasini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Eron, global energetika siyosatida yetakchi rol o'ynashga intilib, qo'shni davlatlar bilan energetika sohasidagi aloqalarni mustahkamlash va Fors ko'rfazi energetika bozorlaridagi ta'sirini kengaytirishga harakat qilmoqda. Eronning ustuvor vazifalaridan yana biri, eksport uchun yangi energetika yo'laklarini rivojlantirish va neft hamda gaz yetkazib berish yo'nalishlarini xilma-xil qilish bo'lib, bu strategiya alohida bozorlar va hamkorlarga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi. Bu, shuningdek, o'zgaruvchan geosiyosiy vaziyat sharoitida eksport quvvatlarini oshirish va energiya manbalarini barqaror yetkazib berishni ta'minlash uchun yangi quvurlar qurish hamda mavjud infratuzilmani zamonaviylashtirishni talab etadi. Bunday yondashuv Eronning energetika sektori uchun mustahkam va barqaror rivojlanish yo'lini taqdim etadi, bu esa uning global energetika bozoridagi mavqeini kuchaytirishi va xalqaro aloqalarini yanada kengaytirishi mumkin. Kelajakda Eron, yangi texnologiyalarni joriy etish va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali o'zining energetika diplomatiyasini yanada diversifikatsiya qilishi kutilmoqda. Bu jarayon, shuningdek, Eronning energetika siyosatining geosiyosiy barqarorlikni ta'minlash va mintaqadagi siyosiy ta'sirini oshirishdagi rolini yanada kuchaytiradi.

## **XULOSA**

Eronning energetika diplomatiyasi Fors ko'rfazi mintaqasining siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynamoqda. Murakkab xalqaro munosabatlar, sanksiyalar va mintaqaviy raqobat Eronni o'zining energetika resurslarini boshqarishda yuqori darajadagi moslashuvchanlik va strategik yondashuvni qo'llashga majbur qilmoqda. Ushbu strategiyaning eng muhim tarkibiy qismi

sarmoyalarni jalb qilish va mintaqaviy hamkorlar bilan ittifoqlar tuzishdir, chunki bu Eronga sanksiyalarni chetlab o'tish va energiya infratuzilmasini rivojlantirishda yordam beradi. Eronning energetika diplomatiyasida iqtisodiy manfaatlar bilan birga, xalqaro aloqalarni mustahkamlash va mamlakatning siyosiy manfaatlarini ilgari surish ham muhim o'rin tutadi. Energetika sohasidagi hamkorlik, ayniqsa mintaqaviy davlatlar bilan, mintaqadagi barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, Eronning energetika diplomatiyasining kelajagi ko'p jihatdan xalqaro siyosat va sanksiyalar bosimi dinamikasiga bog'liq bo'lib, bu Eronga jahon energetika bozoridagi mavqeini yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Biroq, Eronning jahon energetika siyosatida hali ham o'zining munosib o'rnini egallay olmaganligi, samarali va kuchli energiya diplomatiyasining yetishmasligi bilan bog'liq. Eronga xos bo'lgan energiya salohiyati, boy tabiiy resurslar va qayta tiklanadigan energiya manbalari mavjud bo'lsa-da, bu resurslar to'g'ri boshqarilmasa, ular mamlakatning global energetika bozoridagi o'rnini mustahkamlashga yordam bermaydi. Eronning energiya diplomatiyasini yanada kuchaytirish uchun uning boy tabiiy resurslari, yosh va o'sib borayotgan aholisi, hamda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji katta imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda Eron uchun jahon energetika bozorlarida o'zining salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun to'g'ri siyosat va strategik yondashuvlar talab etiladi. Bu jarayon, shuningdek, energiya diplomatiyasining to'liq rivojlanishini ta'minlaydigan kuchli, innovatsion va raqobatbardosh tizimlarni yaratishni talab qiladi. Eronga o'zining zaif tomonlarini bartaraf etish va global energetika bozorlarida samarali ishtirok etish uchun yangi kooperatsiyalarni shakllantirish zarur bo'ladi. Shunda Eron, raqobatbardosh davlatlar – Rossiya va Qatar kabi mamlakatlar bilan hamkorlikda o'zining energiya resurslarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Eronning strategik yondashuvi, uning energetika sohasidagi o'rni va global energetika tizimiga qo'shadigan hissasini yanada oshirishi mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. International Energy Statistics Report. IEA, 2020.
2. Джонсон, М. Энергетическая политика Ирана в XXI веке. Нью-Йорк: Routledge, 2018.
3. Energy Diplomacy in the Persian Gulf. Washington D.C.: Brookings Institution, 2019.
4. Hillary Clinton, "Remarks on Iran," U.S. Department of State, February 11, 2010.
5. Robert Maller, "Iran's Energy Diplomacy: A Regional Perspective," Chatham House, October 2012.

6. Smith, J. The Role of Energy Diplomacy in Iran's Foreign Policy. London: Cambridge University Press, 2021.
7. Мехди, А. Персидский залив: Энергетические стратегии Ирана и их влияние на региональную безопасность. Тегеран: Tehran Publishing, 2019.